



ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



“O‘ZBEK MA’RIFATCHILIK ADABIYOTI” MODULINI O‘QITISHGA DOIR
INNOVATSIYALAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR
ИННОВАЦИИ И ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРЕПОДАВАНИЯ
МОДУЛЯ “УЗБЕКСКАЯ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ЛИТЕРАТУРА”
INNOVATIONS AND ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN TEACHING THE
MODULE “UZBEK ENLIGHTENMENT LITERATURE”

Jo‘rayeva Gulchehra Bekmurodovna
Qo‘qon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: maqolada O‘zbek ma‘rifatchilik adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, shu davrda yaratilgan asarlardagi yangilanishlar borasidagi kuzatishlar, ularni o‘rganishning yangicha tamoyillari, o‘zini oqlagan o‘qitish usullari va uslublari haqida so‘z boradiki, bularni muallimlar tomonidan teran anglab yetishlari daralar sifatining oshishiga ko‘mak beradi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, metod, interfaol, muammoni tahlil, o‘zgarishlar, yangi g‘oyalarn, pedagogik jarayon, noan‘anaviy dars.

Аннотация: в статье говорится об особенностях узбекской просветительской литературы, наблюдениях об обновлениях в произведениях, созданных в этот период, новых принципах их изучения, обоснованных методах и методах обучения, которые используются учителями, их глубокое понимание способствует повышению качества уроков.

Ключевые слова: инновация, метод, интерактив, проблемный анализ, изменения, новые идеи, педагогический процесс, нетрадиционный урок.

Abstract: the article talks about the specific features of Uzbek enlightenment literature, observations about updates in the works created during this period, new principles of their study, justified teaching methods and methods, which are used by teachers their deep understanding helps to increase the quality of lessons.

Key words: innovation, method, interactive, problem analysis, changes, new ideas, pedagogical process, non-traditional lesson.

Oliy ta‘limda “O‘zbek ma‘rifatchilik adabiyoti” modulini o‘qitishda innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida ishlash davrning asosiy talabi, hayotning zaruriyati bo‘lib qolmoqda. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “innovation” – “yangilik kiritish”²³ degan ma‘noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

²³Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2009. – B.154.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilardir:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma hamda malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi.²⁴ O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi.

1. Tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi.
2. Mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi.
3. Yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.
4. Pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z kontseptsiyasi yo metodikasini yaratadi.

Shunday qilib, innovatsion va interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (talaba, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda katta imkoniyatlarga ega.

Moduldagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada INTERNET saytlariga kirib, mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishtiriladi. Badiiy matni sistem-funksional o'rganish, badiiy asarda shakl va mazmun munosabati, timsollar tizimi, adabiy tur va janrlar tahlili yuzasidan tayyorlangan slaydlar va chizmalar ko'rsatiladi. Video, audiovizual materiallardan foydalanib, amaliy mashg'ulot va seminarining xarakteriga ko'ra "Muammoli ta'lim", "Noan'anaviy dars", "Munozarali dars" kabi pedagogik texnologiyalar tipidan foydalaniladi.

- Mazkur modulni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik axborot-kommunikatsiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- kompyuter yordamida badiiy matlarning ritmik tahlili;
- struktural metod asosida badiiy asarlar tahlili (kartochka, multimedia yordamida);
- badiiy nutq asosida qahramon va muallif nutqini farqlash (slaydlar asosida);

Shunga ko'ra ushbu modulni o'qitishning tubandagi interfaol usullarini qo'llashni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

²⁴Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. S.A.Madiyarova va b. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



“SWOT-tahlil” metodi. Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)

• kuchli tomonlari

W – (weakness)

• zaif, kuchsiz tomonlari

O – (opportunity)

• imkoniyatlari

T – (threat)

• to'siqlar

Deylikki, “mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring” tipidagi topshiriq o'rtaga tashlansa, quyidagi jadval asosida muammoga yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

S	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi
W	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari	Badiiy matndagi tuyg'ular tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi
O	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi
T	To'siqlar (tashqi)	Struktural poetika bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmaydi

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi. Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakterdagi matnlarni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko'chma mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatmalarни tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi ...вмякунланади.

Mazkur interfaol metodni amalda qo'llashda kamida ikki badiiy matnni talabalarga havola qilish va shu asosida ularning mumtoz badiiy matnni qay darajada o'zlashtirganligi, ularga munosabati nimalardan iboratligi, badiiy matnning afzallik va kamchiliklarini tushunib yetadilar. Chunki bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda talabalarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy tahlil tizimlari					
Germeneytik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:

“Keys-stadi” metodi. «Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: **Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).**

Mumtoz adabiy matnlarni tahlil etishda mazkur metodning ahamiyati juda katta. Chunki mumtoz matnlar tahlilida bu metodning imkoniyatlari ko'pligini "Qutadg'u bilik", "Qisasi Rabg'o'ziy", "Gulistoni bit turkiy", "Mahzan ul-asror", Navoiy hikoyatlari va boshqa shu kabi matnlarni o'rganishda qo'llansa, samarali natijalarga erishish mumkin. Buning uchun mazkur metodni amalga oshirish yo'llarini puxta o'rganib olish maqsadga muvofiq bo'lishini nazarda tutib, ushbu ko'rsatmani havola qilamiz.

"Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Shu jadval asosida kichikroq badiiy (nasriy yoki she'riy) matnni tahlil qilish uchun ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



“FSMU” metodi. Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni oʻzlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan maʼruza mashgʻulotlarida, mustahkamlashda, oʻtilgan mavzuni soʻrashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashgʻulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid boʻlgan yakuniy xulosa yoki gʻoya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qogʻozlar tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishiga asos boʻladi. Namuna tariqasida FSMU tahlili boʻyicha quyidagi topshiriqni talabalar hukmiga havola etish mumkin boʻladi.

Fikr: “Struktural tahlil asosida “Qisasi anbiyoyi turkiy”dagi “Odam alayhissalom qissasi” matnini mantiqan qismlarga ajratish va uni yigʻish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi . Metodning maqsadi: mazkur metod taʼlim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, oʻzlashtirish koʻrsatkichi va amaliy koʻnikmalarini tekshirishga yoʻnaltirilgan. Mazkur texnika orqali taʼlim oluvchilarning bilish faoliyati turli yoʻnalishlar (test, amaliy koʻnikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) boʻyicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan maʼruza mashgʻulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini oʻrganishda, yangi maʼlumot-larni bayon qilishda, seminar, amaliy mashgʻulotlarda esa mavzu yoki maʼlumotlarni oʻzlashtirish darajasini baholash, shuningdek, oʻz-oʻzini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek,



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



1871-yilda Buxoroda tuzilgan "Tuhfatul-ahbob fi tazkira-til-as'hob" tazkirasining muallifi kim? A) Qori Rahmatulloh Vozeh (1818-1894) B) Afzal Pirmastiy (1915- y.v.e.) C) Ne'matulla Muhtaram (1920-y. v. e.) D) Mirsiddiq Hashmat



1 "Aynul-adab" ("Odob ko'zi"), "Ganjinal hikmat" ("Hikmat xazinas") kabi she'riy to'plamlar, "Anjumani arvoh" ("Ruhlar yig'ini"), "Mir'oti ibrat" ("Ibrat oynasi") kabi dostonlar yozib, chop ettirgan adibni aniqlang. A) Siddiqiy-Ajziy V) Fazlulloh Almaiy C) Sidqiy Xondayliqiy D) Saidrasul Aziziy



Furqatning qaysi asarlarida rus istibdodi ochiqdan-ochiq qoralandi? A) "Munojoti musaddas"i, "Begim" radifli g'azali B) "Suvorov", "Bal xususinda" masnaviylari C) "Bormasmiz", "Kam-kam bo'lur" g'azallarida D) "Adashganman" "Fasli navbahor o'ldi"



"Maktubchai xon", "Jangnoma", "Badavlatnoma yoki tarixi Xo'qand" nomli asarlar bitgan adibni aniqlang. A) Umidiy-Havoiy B) Fazlulloh Almaiy C) Sidqiy Xondayliqiy D) Saidrasul Aziziy

"Tushunchalar tahlili" metodi. Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- * ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- * talabalarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- * talabalar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- * belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- * har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: "Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili"



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impresiv va nutqning bo'yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo'lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko'ra farqlash	
Adabiy janr	O'z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo'lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o'rganuvchi soha	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o'ziga xosligi	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot o'qituvchining yozma tarqatmalari orqali havola qilinishi yoki og'zaki aytib berilishi mumkin.

Venn diagrammasi metodi. Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

* ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

* navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;


* juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Namuna: Ifoda shakllari bo'yicha (she'riy va nasriy nutq)



“Blits-o'yin” metodi. Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallar alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” ustuniga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarni uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblari-ni “guruh bahosi” bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi va talabalardan bu javoblarni “to'g'ri javob” bo'limiga yozish so'raladi.

4. “To'g'ri javob” bo'limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so'raladi. Shundan so'ng “yakka xato” bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to'g'ri javob” va “guruh bahosi” o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Matnning tizimli tahlil ketma-ketligini aniqlash”

O'zingizni tekshirib ko'ring!



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o'z yozuvida o'qish tajribasi					
Matnni o'z tilida o'qib tushunish (lug'at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					

Shunday qilib, oliy ta'limda "O'zbek ma'rifatchilik adabiyoti" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida ishlash davrning asosiy talabi, hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Zero masalaga o'qitishning bugungi talablari asosida yondashishgina mumtoz adabiy matnlarni chuqur tushunib yetish, muallif nazarda tutgan maqsad va mohiyatni anglab yetishga turtki beradi. Negaki mumtoz adabiy materiallar bir o'qish yoki bir marta murojaat etish bilan anglab yetiladigan matnlar emas. Ularning tub-tubiga kirib borish, ulardagi zulma'nayinlikni anglay bilish, bugungi hayotimizga aloqadorligini tushunib yetish va bu masalalarni talabalar ongiga yetkazib berishda bugungi kunda sinovdan o'tgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish talab etiladiki, biz yuqorida bularning ayrimlarigagina to'xtab o'tdik xolos. Holbuki, mumtoz adabiy matnlarni talabalar shuuriga yetkazishni niyatlangan har bir adabiyot muallimi aytilganlardan o'rinli foydalanibgina o'z maqsadiga yetishi va davr o'rtaga qo'yayotgan talablarga javob berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmadjonov T. Xorijiy tillarni o'qitishda tizimli va stilistik tahlillarni qo'llash moodle.uzspic.uz
2. Bertalanffy L. General system theory. Foundations, development, applications. N.Y., 1962.
3. Churchman C.W. The systems approach. N.Y., 1968.
4. General systems theory. N.Y. Vol. 1-30. 1956-85.
5. Блауберг И.В., Садовский В.Н., Юдин Э.Г. Системный подход в современной науке // Проблемы методологии системных исследований. М.: Мысль, 1970.
6. Воскобойников А.Э. Системные исследования: базовые понятия, принципы и методология // «Знание. Понимание. Умение». 2013. № 6.
7. Sharq mumtoz poetikasi (tuzuvchi H.Boltaboev). – T.: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi naShriyoti, 2008.
8. Boltaboev H. Adabiyot entsiklopediyasi. – T., 2015.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



9. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkenr: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
10. To'xliiev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent: "O'qituvchi", 2005.